
FALAK (QISSA)

Tohir Malik

— Asl oltin olish uchun inson qoni darkor...

— Qonni qaerdan olding?

— O‘zimdand.

— Sen o‘z qoningni hamisha ishlatavermaysan-ku?

— Men asl oltindan har doim uzuk ham qilmayman.

— Bundan buyon oltinga inson qoni ishlatishingni man etaman. Inson qonini to‘kmak tanbehga loyiq ishdir. Va bunday qiluvchi kishining umri qisqa bo‘lur. Ulug‘bek saltanatida inson qoni bezak uchun to‘kilmasligi darkor.



TOPILMA

Uch kundan beri ezib yog‘ayotgan yomg‘ir tindi. Kun botarda qonga belangan ufq endi havoning ochilib ketishini va‘da qilgan edi. Lekin mag‘ribdan esib turgan shamol ko‘p o‘tmay yana qora bulutlarni haydab keldi. Yulduzlarning yuzi to‘siltdi. Havo aytarli sovuq emas, biroq kuchsiz izg‘irin badanni junjiktiradi.

Aeroportda navbatchilardan bo‘lak hech kim qolmadi. Shahar tomondan kelgan bo‘sh avtobus haydovchisi bino eshigi og‘zida turgan Sultonga «chiqarmikin» deganday bir-ikki qarab qo‘ydi. Keyin signal berdi-da, yana shaharga yo‘l oldi.

«Oxirgisi bo‘lsa kerak... — o‘yladi Sulton, — nega hech kimdan darak yo‘q? Aslida mehmonxonaga tushaversam bo‘lar ekan. Yo reysni noto‘g‘ri angladimi? Qani, so‘rab ko‘raychi...» U ichkari kirib, navbatchiga yaqinlashdi.

— Kechirasiz, singlim, kunduzi hech kim Sulton Umrzoqovni yo‘qladimi?

— Umrzoqov deysizmi?.. Yo‘q.

— Telefon ham qilmadimi?

— Yo‘q.

Sulton rahmat aytib orqasiga qaytdi-da, «yana bir oz kutay-chi», deb pastak kresloga o‘tirdi. navbatchi qiz telefonda kim bilandir gaplasha turib, chakkasidagi sochlari bir tekis oqargan xushmuomala bu yo‘lovchiga qarab-qarab qo‘ydi. Keyin telefon go‘shagini joyiga ila turib, dedi:

— Sizni biror kishi kutib olishi kerakmidi?

— Ha.

— Boradigan joyingizni aniq bilmaysizmi?

— Bilaman. Buloqboshiga borishim kerak.

— Xiyla uzoq ekan. Shaharda bo‘lsa taksi chaqirib berardim.

— Chaqiravering.